

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

Ro'yxatga olindi:  
№ \_\_\_\_\_  
201\_yil “\_\_” \_\_\_\_

Buxoro muhandislik-texnologiya  
instituti rektori  
\_\_\_\_\_  
201\_yil “\_\_” \_\_\_\_

**TARMOQ TEXNOLOGIYASI VA JIXOZLARI**

**FAN DASTURI**

- |                      |         |  |
|----------------------|---------|--|
| Bilim sohasi :       | 300000  | – Ishlab chiqarish - texnik soha   |
| Ta'lif sohasi :      | 320000  | – Ishlab chiqarish texnologiyalari   |
| Ta'lif yo'naliishi : | 5321500 | – Texnologiyalar va jihozlar (engil sanoat jihozlarini ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish) |

Fan dasturi Buxoro muhandislik-texnologiya institutida ishlab chiqildi.

### **Tuzuvchilar:**

- Gapparov H.G. – BuxMTI, “Texnologik mashinalar va jihozlar” kafedrasi dotsenti.
- Sayfullayev S.S. – BuxMTI, “Texnologik mashinalar va jihozlar” kafedrasi assistenti.

### **Taqrizchilar:**

- Nurboev R.X. – BuxMTI, “To’qima texnologiyasi va dizayn” kafedrasi mudiri, t.f.n., dotsent.
- Xudiev N.X. – “Buxsozta’mirservis” ishlab chiqarish kooperativi bosh muhandisi

Fan dasturi “To’qimachilik va charm sanoati” fakultetining “Texnologik mashinalar va jihozlar” kafedrasi majlisida (201\_\_yil “\_\_” \_\_\_\_ \_\_-son bayonnaoma) muxokama etildi va institut uslubiy kengashiga tavsiya etildi.

Kafedra mudiri: dots. Qurbonov F.A.

Kotiba: M.H.Gapparova

Tanlov fani dasturi Buxoro muhandislik-texnologiya instituti uslubiy kengashida ko’rib chiqildi (201\_\_ yil “\_\_” \_\_\_\_ dagi “\_\_”– sonli majlis bayonnaoma) va institut kengashiga tavsiya etildi.

Uslubiy kengash raisi: dots.SH.M.Xodjiev

Uslubiy kengash kotibi: U.H.Xo’jaqulova

Tanlov fan dasturi institut kengashida muhokama qilindi va tasdiqlandi (201\_\_ yil “\_\_” \_\_\_\_ dagi “\_\_”– sonli majlis bayonnaoma).

Institut kengashi kotibi: \_\_\_\_\_ dots.I.I.Mehmonov

## **I.O'QUV FANINING DOLZARBLIGI VA KASBIY TA'MINLANGANLIK O'RNI.**

Ushbu fan dasturida “Tarmoq texnologiyasi va jihozlari” fanining mazmuni, predmeti va metodi, tarmoq korxonasida ishlatiladigan texnologik mashinalar va jihozlarning tasnifi, yengil, to’qimachilik sanoati korxonalarining texnologik jarayonlari va ularni ishlash asoslari, yengil sanoat xom-ashyolari va ularni ishlab chiqarish jarayonlari, paxtani dastlabki ishlash texnologik mashinalari va jihozlari, hamda respublikamizdagi ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, natijalari va hududiy muammolarning sohalarida ishlatiladigan texnologik mashinalarning va jihozlarning istiqboliga ta’siri masalalari o’z aksini topgan. “Tarmoq texnologiyasi va jihozlari” fani – O’zbekiston Respublikasining qarorlariga asosan yengil sanoat mahsulotlarini ishlabchiqarishni ko’paytirish, ularning sifatini oshirish va kichik korxonalarining samaradorligini oshirish ko’zda tutilgan. Bu masalani hal etilishi mashina va texnologik jarayonlarning takomillashtirishga va sanoatni kompleks mexanizatsiyalashtirish hamda avtomatlashtirishga bog’liq. SHuning uchun ham yengil sanoat korxonalarining butun dunyo fan va texnikasining yutuqlarini tashkil qiluvchi yangi mukammalashtirilgan texnikalar bilan ta’minalash, texnikaviy qayta jihozlashishlarini rivojlantirish, yengil sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish texnologiyasini to’liq mexanizatsiyalash va avtomatlashtirishga qaratilgan bo’lishi kerak.

### **II. Fanning maqsad va vazifalari**

“Tarmoq texnologiyasi va jihozlari” fanining asosiy maqsadi - talabalarga tarmoq texnologiyasi va jihozlarini, tarmoq texnologiyasida mahsulot ishlab chiqarish texnologik jarayonlarini nazariyasini va amaliyotini o’rgatishdir.

Fanning vazifasi – uni o’rganuvchilarga:

- tarmoq texnologik jihozlarining asosiy ishchi organlari;
- tarmoq texnologik jihozlarini ishlash printsiplari;
- yengil va to’qimachilik sanoati, poyabzal sanoati xom-ashyolari, va ularni ishlab chiqarish texnologik jihozlariga texnik xizmat ko’rsatish;
- paxtani dastlabki ishlash texnologik mashinalari va jihozlariga texnik xizmat ko’rsatish;
- engil sanoat va poyabzal sanoati texnologik jihozlariga texnik xizmat ko’rsatish.

### **III. ASOSIY QISM (ma’ruza mashg’ulotlari)**

**1-Mavzu.** Fanga kirish. “Tarmoq texnologiyasi va jihozlari” fanining maqsadi va vazifasi.

**2-Mavzu.** CHigitli paxtani fizik va mexanik xossalari.

**3-Mavzu.** Paxta tozalash korxonalari to’g’risida umumiy ma’lumotlar. Paxta tayyorlash punktlari va korxonalari turlari, PTKning ishlab chiqarish quvvati

**4-Mavzu.**Paxta tozalash korxonalarida ishlatiladigan transport vositalari. CHigitli paxtani qabul qilishda foydalaniladigan mashina – mexanizmlar

**5-Mavzu.**CHigitli paxtani quritish jarayoni. Paxta separatorlari

**6-Mavzu.**Paxta xom-ashyosini quritish uskunalari.

**7-Mavzu.** CHigitli paxtadan mayda iflosliklarni ajratish texnologiyasi. CHigitli paxtadagi iflos aralashmalarning turlari va ularning tarkibi

**8-Mavzu.** CHigitli paxtadan yirik iflosliklarni ajratish texnologiyasi. Yirik iflosliklar va ularning turlari.

**9-Mavzu.**O’rta tolali chigitli paxtani jinlash (tola ajratish) texnologiyasi. Jinlash (tola ajratish) jarayoni to’g’risida umumiy ma’lumot.

#### **IV. Amaliy mashg’ulotlarni tashkil etish bo’yicha ko’rsatma va tavsiyalar**

Fan bo’yicha amaliy mashg’ulotlar namunaviy o’quv rejada rejalashtirilmagan.

#### **V. Laboratoriya mashg’ulotlarini tashkil etish bo’yicha ko’rsatma va tavsiyalar**

Laboratoriya mashg’ulotlarida talabalar tarmoq mashinalarining mexanizmlari va ishchi sektsiyalari ustida tajribalar olib boradilar.

#### **Laboratoriya mashg’ulotlarining tavsiya etiladigan mavzulari**

- CHigitli paxtani namligini aniqlashni o’rganish
- SZN-3M, 2SBS markali chigitli paxta quritgichlari konstruktsiyasini o’rganish.
- CHigitli paxtani iflosligini aniqlash.
- SS-15A separatorining tuzilishi va ishlash printsipini o’rganish.
- CHX-ZM-2 arrali barabanli tozalagichlar konstruktsiyasini o’rganish
- UXK rusumli tozalash agregatining konstruktsiyasini va ishlash printsipini o’rganish.
- Kondenserlar va ularning konstruktsiyasini o’rganish.
- Arrali jinlash jarayonini o’rganish.
- Valikli jinlar konstruktsiyasini o’rganish.
- Linterlar va ularning konstruktsiyasini o’rganish.
- Tola va uning chiqindilarini zinchlash uchun ishlatiladigan gidravlik presslarning konstruktsiyasini o’rganish
- Tarash mashinalari ishchi organlari konstruktsiyasi va texnologik oraliq masofalarni sozlashni o’rganish.

- “Zimfer”- 668 markali pilik mashinasi texnologik va kinematik sxemalarini o’rganish
- Yigiruv tsexi mashinasi konstruktsiyasini va texnologik jarayonini o’rganish

## **VI. Kurs loyihasini tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar**

Fan bo'yicha kurs loyihasi namunaviy o'quv rejada rejalashtirilmagan.

### **VII. Mustaqil ta'lim tashkil etishning shakli va mazmuni**

Mustaqil ta'limning turli xil shakllari mavjud bo'lib, talaba ma'ruza va laboratoriya mashg'ulotlarida olgan bilimlarni, uquv va ko'nikmalarni o'zlashtirish, ijodiy faoliyatni amalgalash oshirish. Ushbu shakllarga quyidagilar tegishlidir:

- darslik yoki o'quv qo'llanmalar bo'yicha fanlar boblari va mavzularini;
- tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruzalar qismini o'zlashtirish;
- maxsus yoki ilmiy adabiyotlar (monografiyalar, maqolalar) bo'yicha fanlar bo'limlari yoki mavzulari ustida ishlash;
- talabaning ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan fanlar bo'limlari yoki mavzularini chuqur o'rganish;
- faol o'qitish uslubidan foydalaniladigan o'quv mashg'ulotlari. Masofaviy (distantion) ta'lim.

### **Tavsiya etilayotgan mustaqil ishlarning mavzulari**

- UVP ko'chma ventilyator qurilmasi ishlash jarayoni va texnik xarakteristikasi va unda bajariladigan ishlar jarayoni;
- Paxtachilik haqida umumiylar ma'lumotlar;
- Urug'lik chigitlarning tuzilishi va xususiyatlari;
- Dalalarni paxta hosilini yig'ib-terib olishga tayyorlash. Paxta terish;
- UXK paxta tozalash mashinasida bajariladigan ishlar jarayoni;
- Paxta tozalash zavodlarida paxta tolasini namlash;
- Tolali chiqindilarning turlari va xususiyatlari;
- Ip va uning xossalari;
- To'quv dastgohlari haqida umumiylar ma'lumotlar;
- Mehnat gigienasi haqida tushuncha. Kasb kasalliklari;
- Mashinada bajariladigan ishlar uchun ish o'rni va kichik mexanizatsiya vositalari;
- Paxta zavodlarida qo'llaniladigan texnologik jarayon sxemalari;
- Paxta tozalash zavodlarining tuzilmasi va boshkaruv tizimi;
- Paxta mahsulotlarini standartlash, sertifikatsiyalash va uning sifat xususiyatlariga talablar;
- CHigitli paxtani quritish;
- CHigitli paxtani xas-cho'plardan tozalash mashinalari;
- CHigitli paxtani jinlash jarayoni. Arrali jinlar;

## **Dasturning informatsion uslubiy ta'minoti**

Pedagogik va axborot texnologiyalari, jumladan virtual stendlar, plakatlar, prezentatsiyalar, elektron uslubiy ko'rsatmalar, diaproektor, kodoskop, slaydlar, kompyuter tarmog'i, ko'rgazmali qurollar va tarqatma materiallardan foydalaniladi.

## **VIII. Foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati**

### **Asosiy adabiyotlar**

1. Handbook for COTTON GINNERS
2. Olimov Q.T., Bafoev D.X. va b. «Tikuv va trikotaj jihozlarini o'rnatish, yig'ish va ta'mirlash asoslari» T., «O'qituvchi», 2004.
3. Olimov Q.T., Nurboyev R. X. va b. «Engil sanoat jihozlarini ta'mirlash va tiklash asoslari» T., «Akademiya», 2005.
4. Olimov Q.T., A.J.Jo'raev., S.U.Po'latova "Yengil sanoat mashina va apparatlari" O'quv qo'llanma "Toshkent", 2001.
5. M.I. Xudix «Remont i montaj oborudovanie tekstilnoy i legkoy promishlennosti», M, 1987.
6. Ya.K.Yashenkov «Texnologiya remonta oborudovanie shveynix predpriyatiy», M, 1985.

### **Qo'shimcha adabiyotlar**

1. Mirziyoev SH.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutqi. –T.: "O'zbekiston" NMIU, 2016. – 56 b.
2. Mirziyoev SH.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdag'i ma'ruza 2016 yil 7 dekabr. – T.: "O'zbekiston" NMIU, 2016. – 48 b.
3. Mirziyoev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. - T.: "O'zbekiston" NMIU, 2017. – 488 b.

4. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida. - T.:2017 yil 7 fevralb, PF-4947-sonli Farmoni.
5. Bafoev D.X. "Tarmoq mashinalarini ta'mirlash" fanidan ma'ruzalar to'plami" Buxoro, 2012.
6. A. L. Ioffe. «Ekonomika i organizatsiya remonta oborudovaniya v legkoy promishlennosti». M. «Legkaya industriya», 1977
7. V.Ya. Frants. «Ekspluatatsiya i remont shveychnogo oborudovaniya». M.:«Legkaya industriya», 1978 g.
8. Xudayx M.I. Remont tekstil'nyx mashin. Izd. 3-e. M.: «Legkaya industriya», 1991 g.
9. Xamov M.G. Remont, montaj i naladka xlopkoochistelnogo oborudovaniya. T.: "O'qituvchi". 1990.
10. P.A. Bolshakov. «Spravochnik po remontu, naladke i ekspluatatsii oborudovaniya obuvnyx predpriyatiy». M., 1982
11. Bafoev D.X. "Tarmoq mashinalarini ta'mirlash" fanidan laboratoriya ishlarini bajarish uchun uslubiy qo'llanma. Buxoro 2012.
12. Belen'kiy S.I. Spravochnik po remontu oborudovaniya tekstil'noy i legkoy promishlennosti. M.:«Legkaya industriya», 1998 g.

### **Elektron resurslar**

1. <http://ziyonet.uz/uzc/library/libid/30506>
2. [www.legprominfo.ru](http://www.legprominfo.ru)
3. [www.textil-press](http://www.textil-press)
4. [www.textileclub](http://www.textileclub)
5. <http://www.uzbekistan.uz>
6. <http://www.bilim.uz>

